

ANALYSIS OF THE ECONOMIC DEVELOPMENT OF THE TRANSPORT SECTOR IN OUR COUNTRY AND THE FORMATION OF DIGITAL MARKETING IN THIS FIELD

Raxmatullayeva Sadokat Kamuljonovna

Lecturer, Department of Economics and Information Technologies Independent
Researcher Urgench Innovative University

E-mail: uriu@urgiu.uz

Abstract. This article analyzes the economic development of the transport sector in our country and the state of formation of digital marketing in it. Also, conclusions are drawn from the study of the economic development of the transport sector in our country.

Key words. Transport, sector, marketing, digital marketing, state, analysis.

MAMLAKATIMIZDA TRANSPORT SOHASINING IQTISODIY RIVOJLANISHI VA UNDA RAQAMLI MARKETINGNI SHAKLLANISH HOLATI TAHLILI

Raxmatullayeva Sadokat Kamuljonovna

Urganch innovatsion universiteti Iqtisodiyot va axborot texnologiyalari
kafedrasi o'qituvchisi, mustaqil izlanuvchi. E-mail: uriu@urgiu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimizda transport sohasining iqtisodiy rivojlanishi va unda raqamli marketingni shakllanish holati tahlili amalga oshirilgan. Shuningdek, mamlakatimizda transport sohasining iqtisodiy rivojlanishini tadqiq qilish bo'yicha xulosalar bayon etilgan.

Аннотация. В данной статье анализируется экономическое развитие транспортного сектора в нашей стране и состояние формирования цифрового

маркетинга в нем. Также на основе исследования экономического развития транспортного сектора в нашей стране сделаны выводы.

Kalit soʻzlar. Transport, soha, marketing, raqamli marketing, holat, tahlil.

Ключевые слова. Транспорт, сектор, маркетинг, цифровой маркетинг, состояние, анализ.

Bugungi global iqtisodiyot sharoitida transport sohasi mamlakat iqtisodiy rivojlanishining muhim tarmogʻi boʻlib hisoblanadi. Chunki, transport tizimi ishlab chiqarish, savdo, logistika va xizmat koʻrsatish sohalari faoliyatining samarali ishlashini taʼminlaydi. Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida transport xizmatlariga boʻlgan talab ortib bormoqda. Oʻzbekistonning boshqa davlatlar bilan iqtisodiy va madaniy hamkorligi, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etishda iqtisodiy tizimni mustahkamlash va rivojlantirish uchun transport logistikasi xizmatlarining koʻrsatilishi lozim [1]. Shunday ekan, ushbu sohani rivojlantirish logistika kompaniyalariga investitsiyalarni jalb qilish va ularda innovatsion loyihalarni amalga oshirishni taqozo qiladi.

Oʻzbekiston Respublikasida transport sohasini modernizatsiya qilish, yangi transport yoʻllari va logistika markazlarini barpo etish hamda xalqaro transport koridorlarini rivojlantirishga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Bu borada Oʻzbekistonda transport tizimini rivojlantirishning asosiy yoʻnalishlari quyidagilardan iborat boʻladi [2]:

- havo transportida bozor munosabatlari va raqobat muhitini rivojlantirish;
- temir yoʻl transportida sohani oʻzgartirish va raqobatni rivojlantirish, transport samaradorligini oshirish bilan bogʻliq muammolarni hal qilish;
- transportning barqaror va samarali ishlashi iqtisodiy oʻsishning yuqori surʼatlari, mamlakat yaxlitligi, milliy xavfsizligini taʼminlash, aholining turmush darajasini

yaxshilash va O'zbekistonning jahon iqtisodiyotiga oqilona integratsiyalashuvini ta'minlash.

Mamlakatimizda transport xizmatlari sohasida oxirgi ikki yillikni ko'radigan bo'lsak, 2022-2023-yillarda 83985,6 mlrd. so'mlik xizmatlar bajarilgan [3]. Ushbu ko'rsatkich 2023-yilga kelib 108477,7 mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatilganini anglatib, yildan-yilga mamlakatimizda transport sohasi rivojlanib borayotganligidan dalolat beradi. Shu bilan birga, mamlakatimizda transport xizmatlarini rivojlantirishda zamonaviy raqamli texnologiyalar, xususan, raqamli marketing vositalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ya'ni, raqamli marketing transport kompaniyalariga xizmatlarni samarali targ'ib qilish, mijozlar bilan tezkor aloqa o'rnatish hamda xizmatlar sifatini oshirish uchun qo'llaniladi. Shu sababli, transport sohasida raqamli marketingni rivojlantirish iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo'li bo'lib hisoblanadi.

Avvalo, mamlakatimizda transport sohasining iqtisodiy ahamiyati quyidagi vazifalarning bajarilishida to'liq namoyon bo'ladi:

- ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlaydi;
- ichki va tashqi savdo aloqalarini rivojlantiradi;
- hududlar o'rtasidagi iqtisodiy integratsiyani kuchaytiradi;
- logistika xarajatlarini kamaytiradi.

Bugungi kunda mamlakatimizda avtomobil transporti, temir yo'l transporti, havo transporti hamda logistika xizmatlari faol rivojlanib bormoqda. Ayniqsa, transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish bo'yicha yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda. Transport sohasining rivojlanishi natijasida yangi ish o'rinlari yaratiladi, logistika tizimi samaradorligi oshadi va mamlakatning tranzit salohiyati kuchayadi.

Shuningdek, keyingi yillarda mamlakatimizda transport infratuzilmasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Transport yo'llarini rekonstruksiya qilish, yangi avtomobil va temir yo'l liniyalarini qurish hamda logistika markazlarini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Avtomobil transporti mamlakat transport tizimining asosiy qismini tashkil etadi. Respublikada minglab kilometr avtomobil yo'llari rekonstruksiya qilinib, zamonaviy talablarga moslashtirilmoqda. Temir yo'l transporti ham iqtisodiy rivojlanishda muhim o'rin egallaydi. Temir yo'l tarmog'ini modernizatsiya qilish, yangi elektrlashtirilgan yo'llar qurish hamda zamonaviy poezdlar joriy etilishi transport xizmatlari samaradorligini oshirmoqda. Havo transporti sohasida ham sezilarli o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Yangi aeroport terminallari qurilishi, xalqaro aviaqatnovlar sonining ortishi hamda aviatsiya xizmatlarining rivojlanishi mamlakatning turizm salohiyatini oshirmoqda.

Fikrimizcha, mamlakatimiz transport sohasida raqamli marketing quyidagi vositalar orqali amalga oshirilmoqda:

- rasmiy veb-saytlar;
- mobil ilovalar;
- ijtimoiy tarmoqlar;
- onlayn reklama;
- elektron pochta marketingi.

Ammo, raqamli marketing transport kompaniyalariga xizmatlarni keng auditoriyaga targ'ib qilish, mijozlar bilan tezkor aloqa o'rnatish, xizmatlarni onlayn bron qilish imkoniyatini yaratish va mijozlar ehtiyojlarini tahlil qilish kabi imkoniyatlarni ta'minlamoqda. Masalan, onlayn chipta sotish tizimlari transport xizmatlarini yanada qulay va tezkor qilishga yordam bermoqda.

Shular bilan birgalikda, mamlakat transport sohasida raqamli marketingning shakllanishi quyidagi bosqichlarda amalga oshmoqda:

1-bosqich – axborotlashtirish. Ushbu bosqichda transport kompaniyalari o‘z faoliyati haqida internet orqali axborot berishni boshladilar. Veb-saytlar va elektron xizmatlar tashkil etildi.

2-bosqich - interaktiv xizmatlar. Bu bosqichda mijozlarga onlayn xizmatlar ko‘rsatish imkoniyati paydo bo‘ldi. Masalan, chipta bron qilish, jadvalni ko‘rish va xizmatlar haqida ma’lumot olish imkoniyati yaratildi.

3-bosqich - raqamli marketing strategiyalarini joriy etish. Unga asosan, bu bosqichda transport kompaniyalari ijtimoiy tarmoqlar, mobil ilovalar hamda reklama platformalari orqali marketing faoliyatini amalga oshirmoqda.

Biroq, transport sohasida raqamli marketingni rivojlantirish jarayonida qator muammolar mavjud. Ularga ayrim hududlarda internet infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi, marketing bo‘yicha malakali mutaxassislar yetishmasligi, raqamli texnologiyalarni joriy etish uchun yetarli moliyaviy resurslar yo‘qligi hamda mijozlarning raqamli xizmatlardan foydalanish ko‘nikmasini pastligi kabilar xos bo‘lmoqda. Shu sababli transport kompaniyalarida raqamli marketing strategiyalarini takomillashtirish zarur.

Xulosa shuki, mamlakatimizda transport sohasi iqtisodiy rivojlanishning muhim tarmog‘idir. Bu borada transport infratuzilmasining rivojlanishi, yangi yo‘llar va logistika markazlarining qurilishi mamlakat iqtisodiy o‘shishiga hissa qo‘shmoqda. Hamda, transport xizmatlarini rivojlantirishda raqamli marketingning roli tobora ortib bormoqda. Ya’ni, raqamli marketing transport kompaniyalariga xizmatlarni samarali targ‘ib qilish, mijozlar bilan aloqa o‘rnatish hamda xizmatlar sifatini oshirish imkonini bermoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ярашев Е. (2023). О‘zbekistonda transport logistikasi sohasini rivojlantirishda investitsiyalarning ahamiyati. Направления развития благоприятной бизнес-среды в условиях цифровизации экономики, 1(02), - с. 98.
<https://doi.org/10.47689/TSUE2022-pp98-101>
2. Usmonov M.D., Roziqov E., Salaydinov D. Mamlakat transport tarmog‘ining iqtisodiyotga ta‘siri. // Journal of marketing, business and management, 2024. - 31 b.
3. Aytiyeva S. O‘zbekistonda transport xizmatini tashkil etishning asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari va tendensiyalari tahlili. // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 2026-yil, fevral, No2-son. - 142 b.